

FAVQULODDA VAZIYATLARDA ODAM CHO'KKANDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM

Kenjayev Anvar Sattorovich

TDPU Harbiy ta'lim fakulteti katta professional o'qituvchisi

Umarov Asilbek Akbar o'g'li

Nurmatov Dilshod Baxtiyor o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Harbiy ta'lim fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada favqulodda vaziyatlarda odam cho'kkanda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, bemorni og'ir ahvoldan saqlab qolish, unga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, jabrlanuvchini hayotini saqlab qolishga va bunday holatlarda qanday harakat qilish kerakligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar:*Shikastlanish, qutqaruvchi, birinchi yordam, krol usulida, brass usuli, chalqancha brass usuli langar, cho'p, jabrlanuvchi, nafas olish tizimlari, traxeya va bronxlar, qirg'oq, ko'krak qafasi.*

Cho'kkan kishiga malakali birinchi yordam ko'rsatish uchun cho'kish hodisasi qanday qilib va qachon yuz berganligini bilish, kishining ahvolini aniqlab olish kerak. Uning ahvolidan kelib chiqib, birinchi yordamning turli choralarini qo'llash lozim bo'ladi. Eng avvalo, klinik o'lim holatini hushdan ketish va biologik o'limdan ajrata bilish zarur.

Xushdan ketganda, odam o'zini bilmay qoladi, lekin yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyati, garchi ancha kuchsizlanib qolgan bo'lsa-da, lekin davom etadi. Suvga cho'kkanda odam hushdan ketishi, nafas to'xtashi, yurak faoliyati juda pasayib ketishi, kuzatilishi mumkin.

Bunday xolatlarda shikaslangan odam suvdan chiqarib olinadi, suvdan chiqarish vaqtida uzun tayoq, arqon va boshqa vositalardan foydalanish mumkin. Agar qutqaruvchi suvda yaxshi suza oladigan bo'lsa, cho'kkan odamning kiyimlaridan sochidan, tortib suvdan chiqarishi mumkin. Shikaslangan odam suvdan chiqarilgandan so'ng, qorni bilan yotqiziladi, oyoqlari yuqoriga ko'tarilib, traxeya va bronxlardan suv haydab chiqariladi, so'ngra shikaslangan odamni yordam ko'rsatuvchi tizzasiga qorni va ko'kragi bilan yotqizib, ko'krak qafasi orqa sohasidan bosiladi. Bunda traxeya va bronxlardagi suvlar chiqib ketishi kerak. Shundan keyin bemorga jonlantirish tadbirlari o'tkaziladi: suniy nafas berish, agar yurak to'xtagan bo'lsa, yurakni tashqiy tomonidan massaj qilinadi. Har qaysi suzish usuli vaziyatga, sharoitga, vaqtga qarab tanlanadi. Chunki har qaysi usul o'z ahamiyatiga ega. Masalan: 1) ko'krakda krol usulida suzish eng tezkor usul bo'lib, uzoq masofani tezroq bosib o'tish, cho'kayotgan odamni ko'zdan yo'qotib qo'ymaslik (bosh suvdan yuqorida bo'lanligi uchun) imkoniyatlariga ega: 2) yonboshlab suzish esa cho'kayotgan odamni suvdan olib chiqishda qo'llaniladi. Chunki bu usulda odam bir qo'lni band qilgan xolda, ikkinchi qo'l bilan suzib ish bajarishi imkoniyatiga ega bo'ladi; 3)

chalqancha brass usuli esa harakat tezligi katta bo'lganligi uchun, binobarin, sharoit zudlik bilan yetib borishni taqozo qilganligi uchun qo'llaniladi. Odatda, cho'kayotgan odamga yoki charchab xoldan toygan odamga yordam ko'rsatiladi. Yordam ko'rsatuvchi shaxs o'zi nafaqat yaxshi suzish va sho'ng'ishni bilishi, balki jabrlanuvchini tashish usullarini va uning osilib olishidan o'zini bo'shatishni bilishi kerak.

Ommaviy baxtsiz hodisalarda har bir cho'kayotgan odamga alohida yordam ko'rsatishga harakat qilish kerak. Suzib turib birdaniga bir nechta odamga yordam ko'rsatib bo'lmaydi. Yordam ko'rsatish uchun tez suvga sakrash kerak bo'lsa, kiyimni va poyafzalni yechib olish kerak. Suvning tubi va chuqurligi noma'lum bo'lgan joylarda suvga kalla tashlab sho'ng'ib bo'lmaydi. Suvga sakrash joyini shunday tanlash kerakki, oqimning tezligidan foydalanib hodisa ro'y bergan joyga tezroq yetib borish mumkin bo'lsin.

Suvning harorati past bo'lganda yoki suzayotgan odam charchaganida uning boldir, son mushaklarida yoki barmoqlarida tomir tortishib qolishi mumkin. Boldir mushaklarida tomir tortishganda chalqancha suzib tomir tortishib qolgan oyoqni oldinga cho'zish va uning barmoqlarini o'ziga qaratib tortish tavsiya etiladi. Son mushaklarida tomir tortishganda oyoqni tizada kuch bilan bukish yordam beradi, bunda oyoqning tagini qo'l bilan sonning ichki tomoniga bosib turish kerak.

Qo'l barmoqlari ivishganda qo'lni mushtum qilgan holda suvdan chiqarib qattiq silkitish kerak. Suzib charchagan odamga quyidagicha yordam ko'rsatish mumkin. Yordam ko'rsatuvchi odam charchagan odamning oldinga cho'zgan qo'llarining bilaklari tagiga o'z yelkalarini tutishi va "brass" usuli bilan suzib uni o'zi bilan olib ketishi lozim. Agar suzib charchagan odam yordam ko'rsatuvchi odam bilan bir maromda oyog'i bilan suza olsa, uni olib chiqish yanada osonroq bo'ladi. Suzib charchagan odamning qo'llari yordam ko'rsatayotgan odamning yelkalaridan sirpanib tushib ketmasligini kuzatib turish kerak. Cho'kayotgan odamga orqasidan turib yordam ko'rsatish kerak, chunki umidsizlik va qo'rquv cho'kayotgan odamga kuch beradi va u yordam berayotgan odamga yopishib olib uni ham cho'ktirishi mumkin. Agar cho'kayotgan odam yordam berayotgan odamni baribir ushlab olgan bo'lsa, chuqur nafas olgan xolda suvning tagiga sho'ng'ish kerak. Bunda cho'kayotgan odam suvning ustida qolish uchun yordam berayotgan odamni qo'yib yuboradi.

Cho'kayotgan odam ushlab olishidan qutulishning bir nechta usullari mavjud: agar cho'kayotgan odam yordam berayotgan odamning old tomonidan tanasidan yoki bo'ynidan ushlab olgan bo'lsa, bir qo'l bilan uning belidan ushlab turib, boshqa qo'lning kafti bilan cho'kayotganning dahaniga tiralish, burnini qisish va kuch bilan dahaniga itarish kerak. Juda bo'lmaganda yordam ko'rsatuvchi shaxs cho'kayotgan odamning qornidan pasiga tizzasi bilan tiralishi va undan kuch bilan itarilishi lozim.

Agar cho'kayotgan odam yordam beruvchining bilaklaridan ushlab olgan bo'lsa, qo'llarni mushtum qilib kuch bilan tashqariga chiqib ketishga harakat qilish kerak va shu bilan bir vaqtda oyoqlarni qoringa tortib cho'kayotgan odamning ko'ksiga tiralish va undan itarilish kerak.

Agar cho'kayotgan odam yordam beruvchining oyoqlaridan ushlab olgan bo'lsa, undan o'zini bo'shatish uchun bir qo'l bilan boshini o'ziga bosib turib, ikkinchi qo'lda uning dahanidan ushlab o'ziga teskari qilib burish kerak. Agar cho'kayotgan odam suv ostiga kirib ketgan bo'lsa, uning ketidan sho'ng'ish kerak. Uni darhol topib bo'lmasa, bir necha marta parallel sho'ng'ish kerak.

Agar cho'kayotgan odamning orqa tomonidan suzib kelish mumkin bo'lmasa, unda eng yaxshisi undan bir necha metr berida sho'ng'ib, uning yon tomonidan suzib kelish kerak va bir qo'l bilan uning tizzasidan itarib, ikkinchi qo'l bilan boshqa oyog'idan ushlab, siltab o'ziga teskari qaratib olish va qirg'oqqa olib chiqish kerak.

Agar jabrlanuvchi suvning ostida tepaga qarab yotgan bo'lsa, yordam beruvchi odam sho'ng'ib uning boshi tomonidan suzib borishi kerak, agar jabrlanuvchi pastga qarab yotgan bo'lsa — uning yoniga oyoq tomonidan suzib borishi kerak. Ikkala holatda ham yordam beruvchi odam jabrlanuvchini qo'ltig'ini tagidan ushlab olib, ko'tarishi va suvning tubidan kuch bilan itarilib cho'kkan odam bilan suvning ustiga chiqib olishi va qirg'oqqa qarab suzishi kerak.

Cho'kayotgan odamni bir necha usulda qirg'oqqa olib chiqish mumkin: masalan boshidan ushlab; Buning uchun yordam berayotgan odam cho'kayotgan odamni chalqancha holatga o'tkazishi uni shu holatda ushlab turib, yuzini kafti bilan (kafti bilan quloqlarini berkitib, katta barmoqlari bilan lunjidan, kichkina barmoqlari bilan esa past jag'idan) ushlab va suvning ustidan ushlab qirg'oq tomon olib borishi kerak. Yordam berayotgan odamning o'zi ham chalqancha suzishi lozim; Buning uchun yordam berayotgan odam cho'kayotgan odamning orqasidan suzib kelishi, uning tirsaklarini orqasiga o'tkazishi va uni o'zining bag'riga bosib erkin usulda suzib qirg'oqqa olib borishi kerak; qo'l ostidan ushlab. Buning uchun yordam berayotgan odam cho'kayotgan odamning orqasidan suzib kelishi, o'zining o'ng (chap) qo'lini tezlik bilan uning o'ng (chap) qo'li ostiga o'tkazib olishi, cho'kayotgan odamning ikkinchi qo'lini tirsagidan teparog'idan ushlab uni o'zining bag'riga bosib yonboshlab suzib qirg'oqqa olib borishi kerak. Hushidan ketgan odamni qirg'oqqa olib chiqish uchun yordam berayotgan odam yonboshlab suzishi va jabrlanuvchini sochidan yoki yoqasidan tortishi kerak. Cho'kayotgan odamni har qanday usullar bilan qirg'oqqa olib chiqishda uning og'zi va burni suvdan tepada bo'lishi kerak. Cho'kayotgan odamni qayiq yordamida qutqarish. Cho'kayotgan odamni qutqarish uchun maxsus buyumlarsiz qayiqda suzib borilganda, o'zi bilan langar, cho'p, yog'och va h k. olib borish, agar cho'kayotgan hushini yo'qotmagan bo'lsa uni cho'kayotgan odamga uzatish kerak. Agar qayiqda odam bitta o'zi bo'lsa, bu holda u suvga sakramagani ma'qul, chunki boshqaraolmaydigan qayiqni suv oqimi olib ketishi mumkin. Qayiqni cho'kayotgan odamning oldiga faqat yon tarafi bilan emas, balki old yoki orqa uchi bilan olib borish kerak. Cho'kayotgan odamni qayiqqa yo old yo orqa uchidan olish kerak, chunki uni qayiqning yon tomonidan olinadigan bo'lsa qayiq ag'darilib ketishi mumkin. Agar qayiqdagi yordam ko'rsatuvchi ikkinchi odam, cho'kayotgan odamni qayiqdan turib suvdan ushlab ketishi mumkin bo'lsa, cho'kayotgan odamni qayiqqa olmasa ham bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.glossary.uz
4. www.Ziyonet.uz
5. www.edu.uz
6. МУСТАЕВ, Р. Д., УБАЙДУЛЛАЕВ, С. С., & Носирхонзода, А. Н. РОЛЬ СЕМЬИ, ОБЩИНЫ И ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ДУХА У МОЛОДЕЖИ. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 71.
7. МУСТАЕВ, Р., ХАСАНОВ, Н., УБАЙДУЛЛАЕВ, С., & АЛИНАЗАРОВ, Н. В ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОМ ДУХЕ. МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО" Издательство Молодой ученый", (2), 458-459.
8. Мустаев, Р. Д., Хасанов, Н. Х., Убайдуллаев, С. С., & Алиназаров, Н. Н. (2023). ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВОЕННЫХ КОМИТЕТОВ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *Мировая наука*, (1 (70)), 115-119.
9. Мустаев, Р. Д. (2023). ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВЗГЛЯДОВ НА ПАТРИОТИЗМ ВО ВЗГЛЯДАХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ЭПОХИ ТЕМУРИДОВ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(3), 252-262.
10. Damirovich, M. R., Nurmuhammad, X., Saydaliyevich, U. S., & Nosirxonozoda, A. N. (2022). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MASALALARI. *PEDAGOG*, 1(4), 1411-1414.
11. Мустаев РД. ИЗУЧЕНИЕ РЕЛЬЕФА МЕСТНОСТИ ПО КАРТЕ. ИЮДКОР О'QITUVCHI. 2022 Nov 26;2(24):100-21.
12. Мустаев, Р. Д., & Юсупов, Ш. Б. (2022). ТОПОГРАФИК ХАРИТА ҲАҚИДА ТУШУНЧА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 900-904.
13. Damirovich, M. R., & Saydaliyevich, U. S. (2022). POSITIONING NAVIGATION FROM SATELLITES TARGETING WITH TOOLS. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 978-983.
14. Damirovich, M. R., & Saydaliyevich, U. S. (2022). JOY TURLARI VA ULARNING TAKTIK XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(3), 1027-1032.
15. Мустаев, Р. Д. (2022). ИЗМЕРЕНИЕ УГЛОВ И РАССТОЯНИЙ НА МЕСТНОСТИ БЕЗ КАРТЫ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(10), 79-83.
16. Alimov, S. S., & Yusupova, O. M. (2022). LINGUOCULTURAL FEATURES OF BORROWINGS FROM ENGLISH TO UZBEK LANGUAGE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 1-4.
17. Mamadjanova, M. U. (2022). O 'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOQ 'ISHTIRMA TADQIQI. ANTONAMAZIYA EPITETLAR. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(5), 110-115.